

*Markaziy Osiyo tafakkurida islom falsafasining tadrijiy rivoji*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MARKAZIY OSIYO TAFAKKURIDA ISLOM  
FALSAFASINING TADRIJIY RIVOJI**

**«ПОЭТАПНОЕ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКОЙ  
ФИЛОСОФИИ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ  
АЗИИ»**

**«STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY  
IN THE WORLDVIEW OF CENTRAL ASIA.**



**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA**

**Buxoro shahri, 2025-yil 15-may**



ta'rif beradilar<sup>1</sup>. Bu degani jussasi kichik bo'lsada uning qalbi, ruhi, ma'naviy fikrlari katta olamdir. Insonning bilish quvvati cheksizdir. Ustoz va olim M.Boltayevning rahnamoliklarida tasavvuf ta'limoti ko'plab shogirdlari tomonidan tadqiq etilganligini kuzatdik. Ushbu tadqiqotlarda ular tasavvufning ma'naviy tomonlarini chuqurroq anglash bilan birga uning O'rta asr Sharq falsafiy tafakkuri rivojiga ta'sirini tahlil qilishga intilganlar. So'fiylik ta'limotini o'rganish ularga Xudoning tabiati, insonning olamdagi o'rni, borliq ma'nosi, haqiqatni izlash kabi asosiy falsafiy g'oya va tushunchalarni tasavvufiy tajriba orqali ochib berishga imkon berdi. M.Boltayev shogirdlarining maqsadi nafaqat so'fiylik falsafasini sharhlash, balki bu ta'limotlarni ma'naviy hayot, diniy tajriba va bilimlarni kengroq tushunishga tadbiiq etish bo'lgan. Ular tasavvufning axloq va ilohiyot kabi boshqa bilim sohalariga qanday ta'sir ko'rsatishi va uning g'oyalari boshqa maktablar, jumladan, islom falsafasi va umuman jahon falsafasi falsafiy tushunchalari bilan qanday bog'liqligini o'rganishdan iboratdir. Demak, barkamol avlod tarbiyasi ustivor yo'nalish bo'lgan hozirgi kunda insonni komillik darajasiga yetkazishga xizmat qiladigan ta'limotlarni o'rganish davr talabidir.

## **YUSUF QORABOG'YNING INSONNING AXLOQIY KAMOLATI HAQIDAGI QARASHLARI.**

***Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li – BuxDU tadqiqotchisi***



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yusuf Qorabog'iyning «Haft behisht» asari asosida insonning axloqiy kamoloti haqidagi falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Muallif tasavvufiy tafakkurga tayangan holda, axloqiy yuksalishni ruhiy poklanish, nafsni tarbiya qilish, aqlni faollashtirish va ilohiy haqiqatga yaqinlashish jarayoni sifatida izohlaydi.

**Калит сўзлар:** Axloqiy kamolot, ruh, nafs, komil inson, ma'naviy poklanish, mushtarak hiss, o'zini anglash.

**Аннотация:** В статье анализируются философские взгляды Юсуфа Карабаги на нравственное совершенство человека на основе его произведения «Haft behisht». Опираясь на мистическую мысль, автор трактует нравственное возвышение как процесс духовного очищения, воспитания эго, активизации разума и приближения к божественной истине.

**Ключевые слова:** Нравственное совершенство, душа, душа, совершенный человек, духовное очищение, здравый смысл, самосознание.

**Annotation:** This article analyzes Yusuf Karabaghi's philosophical views on human moral development based on his work «Haft behisht». Based on mystical thinking, the author interprets moral development as a process of spiritual purification, education of the soul, activation of the mind, and approaching divine truth.

**Keywords:** Moral perfection, soul, soul, perfect person, spiritual purification, common sense, self-awareness.

---

<sup>1</sup> Болтаев М. Дунёни англаган кўнгил // Саодат. -1993 -8 сон. -Б.6; Хўжа Абдулхолик Гиждувоний - инсондўст хахим. рифъат шайх. -Бухоро, 1994.-Б.16.





Mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makonni barpo etish, ma'rifatli jamiyat qurishda islom madaniyatining falsafiy, ma'naviy va ilmiy merosi, umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan mutafakkirlarning qarashlarini hayotga tadbiq etishga oid strategik dasturlar izchillik bilan olib borilmoqda. «...jamiyatda poraxo'rlik va korruptsiyaga qarshi o'ziga xos «ma'naviy immunitet»ni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelingan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda yaqindan yordam bergan»[1,420b].

Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Yusuf Qorabog'iy o'zining Haft behisht nomli asarida inson ruhiyati, axloqiy taraqqiyoti va ma'naviy yuksalish yo'llarini chuqur tahlil etadi. U insonni faqat jismiy mavjudot sifatida emas, balki ruhiy va ma'naviy kamolot sari intiluvchi zot sifatida talqin qiladi. Uning qarashlari hozirgi zamon axloqiy tarbiya va insoniy qadriyatlar haqida o'ylayotgan kishi uchun ham dolzarbdir.

Qorabog'iyning falsafasi panteistik jihatdan boshqa yangi panteistik, Sharq Aristotelizmi va shu jarayonlarning bu va boshqa jihatlarini ham o'zida birlashtiradi. Faylasuf bir necha asarlarida, shu jumladan «Haft behisht»[2,109b] risolasida «Insonning mohiyati, nafs bilan badan orasida bo'lgan munosabat haqida izoh bo'limida avvalo shuni qayd etadiki, insonning haqiqatini tashkil etgan nafsdur, insonning badani esa ushbu nafsni minuvchidir. Bundan ko'rinadiki, Yusuf Qorabog'iy hurufizm jarayonining ahamiyatli namoyondasi bo'lgan Nasimiy qarashlariga hamohang tarzda nafs va insonning o'zini ham «Ruhul – quds va ismi A'zam» nomlagan holda yozadi: «Bilki, insonning haqiqati (mohiyati) bu zulmatli moddiy badan emas, nafsdan iboratdir. Moddiy badan esa uning munuvchisi, u esa miniladigan jarayondir. Ba'zan nafs muqaddas ruhga va buyuk nomga, badanni esa odamga o'xshatadilar. Muqaddas ruhdan odamga puflangan edi. Sayid Nasimiy yozadi: Odamga puflangan ruh- muqaddas ruhdan va buyuk nomdan iboratdir [3, 243a-243b].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki Yusuf Qorabog'iyning falsafiy qarashlariga ko'ra, insonning asl mohiyati — bu uning ruhi va aqliy salohiyatidadir. Tana esa faqat vaqtinchalik vositadir. «Ruh chavandoz, tana esa ot» degan ramziy ifoda orqali u ruhning ustuvorligini, tananing esa xizmatkorligini ko'rsatadi. Shuning uchun insonning chinakam kamoloti — tanani emas, aynan ruhni tarbiyalash orqali amalga oshadi.





Axloqiy kamolot Yusuf Qorabog'iy nazarida quyidagi bosqichlarda ro'y beradi: Yusuf Qorabog'iy «Har narsani, hatto Allohni ham o'zingdan axtar!» fikrini tahlil etar ekan shunday deydi: «Istagan har bir narsani o'zingdan talab et, chunki sen o'zing har narsasan» [4, 34b] .

Qorabog'iyning ushbu fikri Xoja Abdul Vafoning yuqoridagi fikri bilan deyarli bir xildir. Abdul Vafo shunday deydi: «Doimo talab etgan narsa mening ichimdadir, hatto men o'zimman» [5.48b]. Muttafakirning ushbu fikrlari orqali quydagilarni anglashimiz mumkin: **O'zini anglash** — Inson avvalo o'z mohiyatini tanishi, ruhiy imkoniyatlarini kashf etishi kerak. **Hissiy idrokni oshirish** — Inson sezgi organlari orqali faqat tashqi dunyoni emas, balki ichki olamini ham idrok etishi kerak. Mushtarak hiss, xayol, tafakkur kabi botiniy kuchlarni rivojlantirish orqali inson ichki dunyosiga chuqurroq nazar soladi. **Tazkiya va tahliya** — Nafsi yomon illatlardan poklab, yaxshi fazilatlar bilan ziynatlanish. Qorabog'iy axloqiy sifatlarni «ruhiy bog'ga o'xshatadi: har bir bog'da bir fazilat ochiladi, yomon xatti-harakatlar esa o'sha bog'ni iflos qiluvchi begona o'tlardir. **Haqq bilan bog'lanish** — Axloqiy yuksalishning eng yuqori cho'qqisi Allohni tanish, unga bog'lanish, uning roziligini ko'zlashdan iborat. Bu holatni u «fano» holati deb ataydi — ya'ni o'zini yo'q qilish orqali haqiqiy borliq bilan uyg'unlashish.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak Yusuf Qorabog'iy qarashlarida axloqiy kamolot — bu faqatgina xulq-atvor masalasi emas, balki ruhiy poklanish, tafakkur chuqurligi, ilohiy haqiqatga intilish va o'z «men»idan voz kechish yo'lidir. Yusuf Qorabog'iy «Har narsani, hatto Allohni ham o'zingdan axtar!» fikrini tahlil etar ekan shunday deydi: «Istagan har bir narsani o'zingdan talab et, chunki sen o'zing har narsasan»[6, 48b]. U ushbu fikrlari orqali tasavvuf falsafasining mohiyatini g'oyat nafislik bilan ochib bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: «O'zbekiston», 2021. – Б. 420
2. Nuritdinov M. Yusuf Qorabog'iy va O'rta Osiyoda XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy falsafiy fikr. «Fan».T.,1991. -B.121
3. Yusuf Qorabog'iy. Haft behisht. C. 243a-243b.
4. Məsiəğə Məhəmmədi.Yeddi bag'. Baku. 1997. -C.73.
5. Yusuf Qorabog'iy. Haft behisht. C. 48.
6. А. Аминзода. Очерки по истории азербайджанской философии. Баку.1966. Т. 1. –С. 48.



|                                                                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ZAKARIYA AL-ROZIY ASARLARIDA SALOMATLIK FALSAFASI.                                                                                                              |     |
| <i>Rajabov O.A.</i> .....                                                                                                                                       | 307 |
| ИСЛОМ ДИНИДА ТИНЧЛИК ТАВСИФИ. <i>Шарунов Д.Б.</i> .....                                                                                                         | 309 |
| «RASHAHOTU AYNIL-HAYOT» ASARIDAGI RASHHALARDA<br>JAMIYAT RIVOJLANISHIGA DOIR G'UYALARNING FALSAFIY<br>TAHLILI. <i>Qamariddinova G.A.</i> .....                  | 312 |
| NOSIRIDDIN TUSIY: RIYOZIYOT VA ASTRANOMIYA. <i>Sobirov U.B.</i> ....                                                                                            | 316 |
| ISLOM FALSAFASIDA TABIATNI ASRASH VA ATROF-MUHITGA<br>ENTIYOTKORLIK BILAN MUNOSABAT.<br><i>Kalandarova F.A., Jumaeva N.E.</i> .....                             | 318 |
| ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК КРИТЕРИЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ<br>ЗРЕЛОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБДУРАУФА ФИТРАТА «РАХБАРИ<br>НАДЖОТ». <i>Шарунова Л.А.</i> .....                     | 320 |
| TUSTARIY DUNYOQARASHIDA ODOB-AXLOQ MASALASI.<br><i>Raximov X.M.</i> .....                                                                                       | 324 |
| MUHAMMAD BOLTAYEV – MARKAZIY OSIYO MUTASAVVIPLARI<br>MEROSINI O'RGANGAN OLIM. <i>Shamsiddinov Q., Asrorova M.U.</i> .....                                       | 326 |
| YUSUF QORABOG'YNING INSONNING AXLOQIY KAMOLATI<br>HAQIDAGI QARASHLARI. <i>Davronov O.U.</i> .....                                                               | 328 |
| TUSTARIY TA'LIMOTIDA ILMNING AHAMIYATI. <i>Raximov X.M.</i> .....                                                                                               | 331 |
| MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK OLIMALARINING ILM-FAN,<br>MADANIYAT RIVOJIGA HAMDA FAN VA TEXNIKA<br>TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSALARI. <i>Elboyeva Sh.B.</i> ..... | 333 |
| ONA TILI – O'ZLIK TIMSOLI. <i>Qurbonova M.B.</i> .....                                                                                                          | 337 |
| ORIF DEGGARONIYNING TASAVVUFIY-AXLOQIY QARASHLARI.<br><i>Bakaeva F.Sh.</i> .....                                                                                | 342 |
| INSONLARDA KO'ROLMASLIK HISSI NAMOYON BO'LISHI: DINIY VA<br>FALSAFIY QARASHLAR. <i>Jabborov O.A.</i> .....                                                      | 345 |
| ZIYORAT TURIZMINING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI.<br><i>Elmurodova N.J.</i> .....                                                                               | 350 |
| РОЛЬ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ДЖАДИДОВ В<br>НАЦИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖИ. <i>Равшанова Ш.Р.</i> .....                                                      | 355 |
| SHARQ VA G'ARB TAFAKKURIDA ISLOM FALSAFASI: ABU HASAN<br>BAHMANYORNING O'RNI. <i>Hayotova N.Z., Bobomurodova M.B.</i> .....                                     | 358 |
| VOLTER QARASHLARIDA FRANSIYA ABSOLYUTIZMINING TAHLILI.<br><i>Fayziyev X.J.</i> .....                                                                            | 361 |
| ISLOMDA TASAVVUF TARIQATI. <i>To'xtayeva Sh.Sh.</i> .....                                                                                                       | 365 |